

Temuriylar davrida milliy liboslarining koʻrinishi va hozirgi milliy liboslarining klassik namunalarga qiyoslash

Usmanova Akida Saidasrovna

Annotatsiya. Maqolada Temuriylar davri libos tarixi, libosning vujudga kelishi libosning koʻrinishi, jamiyatdagi oʻrni va ahamiyati, tarixiy liboslarda bezaklarning jozibadorligi, zamonaviy modada hozirgi milliy liboslarining klassik namunalarga qiyoslash, ahamiyati, afzalliklari keltirib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: *Temur tarixi, tarixiy libos, milliy libos, zamonaviy modda, klassik namunalar, bezaklar jozibadorligi*

KIRISH

Temur markazlashgan davlat tuzish jarayonida ishlab chiqarishga alohida eʼtibor berdi. Toʻqimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik sohalari asosiy oʻrin tutgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Termiz, Shahrisabz, qarshi shaharlarida yangi hunarmandchilik mahallalari qurilib, savdo markaziga aylandi. Ip, jun, kanop tolasidan gazmollar toʻqilgan. Ipakdan shoyi gazlamalar atlas, kimxob, banoras, duhoba, horo, debo kabi gazmollar toʻqilgan. Chet davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishda temuriylarning elchilik aloqalari muhim ahamiyat kasb etgan. Movarounnahr miniatyuralarida ayollar libosi oq gazlamadan tikilgan uzun yengli, toʻgʻri toʻrtburchak bichimli libos – kurtada tasvirlangan, uning ustidan esa yenglari uzun boʻlgan boʻyin oʻyimi koʻkrak chizigʻigacha uchburchak shaklda boʻlgan – piroxan koʻylak, oldi ochiq yoki oʻngdan chapga ustma-ust yopiluvchi qabo libos kiyilganlar. Qaboning yenglari tirsakkacha boʻlib, baʼzilar barmoqlarni yopib turuvchi uzunlikda boʻlgan.

Miniatyuralardagi ayollar libosida erkaklarnikidan farqi bosh kiyimi, taqinchoqlarning koʻpligi, taqinchoqlarning jozibadorligi va libosning tanaga birozgina yopishgan holatda tasvirlangani bilan ajralib turadi.

Yuqori tabaqaga mansub ayollar va erkaklar liboslari quyi tabaqaga mansub ayollar va erkaklar liboslaridan sonining koʻpligi bilan liboslardagi bezaklarning jilvakorligi, libosning matolari bilan ajralib turgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI



Dizaynerlar zamonaviy liboslarni yaratishda milliy matolardan foydalangan holda ularning yangi qirralarini kashf etish, yangicha dizayn usullarni topish ustida ish olib bormoqda. S.Amir, S.Murodxo‘jayeva, A.Manshayev, D.Qosimova, N.Sherxo‘jayeva, N.Arapova, T.Chursina, Z.Sultonova, D.Tomilin va boshqa dizaynerlar kolleksiyalari buning tasdig‘idir.

Xalq dekorativ kashtachiligi, rang-barang uyg‘unligi va boy ornament naqsh motivlaridan unumli qo‘lab, qadimiy naqshlar jozibasidan ruhlangan holda milliy dizayn maktabi yaratilmoqda.

Shu jumladan, dizayner Saodat Murodxo‘jaeva O‘rta asr Sharq miniatyura san‘atining noyob asarlarini zamonaviy libosda mohirlik bilan qo‘llagan holda, yoshlarning kundalik liboslarini yaratib kelmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Etnik guruhlarining liboslaridagi farqlarni ilk o‘rta asrlarga mansub Afrosiyob, Bolaliktepa, Panjikent, Varaxsha kabi saroy xarobalari devorlaridagi suratlarda ham ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Shu jumladan amudaryo xazinasidan topilgan haykalchalarda ham kiyimlardagi farqlar yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. O‘rta Osiyoda, xususan, o‘troq madaniyat rivoj topgan bo‘lib, So‘g‘d, Baqtriyada to‘qimachilikning rivojlanishi bilan xorijiy matolarga talab to‘xtab qolmagan. Bu esa mahalliy kiyim-kechaklar, matolar kolleksiyasining yanada boyishiga olib kelgan.

Temuriylar davrida Kamoliddin Behzod, Muhammad Chag‘riy, Muassin Abdullo, Muhammad Murod Samarqandiy kabi bir qator rassomlar o‘z miniatyuralarida shu davrdagi aholining barcha tabaqalari, yashash sharoiti, turmush tarzi, tashqi ko‘rinishi, kiygan liboslarini, madaniyatini yuksak mahorat bilan tasvirlashgan.

Miniatyuradagi tasvirlardan shuni bilish mumkinki, ayollar libosining nomlari, turlari, shakli, bichimi, bezagi erkaklarnikiga yaqin o‘xshash bo‘lgan. Ijtimoiy farqlar baravar kiyilgan kiyimlar soni va qo‘llangan gazlamalar bilan belgilanardi.

Miniatyuralarda zargarlik buyumlari kam tasvirlangan, chunki ular kiyimning ostida bo‘lgan. Yozma ma‘lumotlar va tasvirlarga qaraganda, zargarlik buyumlaridan zebigardon, haykal, tumor, zirak, uzuk, bilaguzuk, buloqilar bo‘lgan.

Buyuk bobomiz Amir Temur va temuriylar davri bo'yicha istiqloq sharofati tufayli talay tadqiqotlar qilinganiga qaramay, bu mavzuda hali o'z yechimini kutayotgan masalalar mavjudligini rad etib bo'lmaydi. Masalan, Amir Temur asos solgan davlatning mafkurasi, uning ildizlarini o'rganish bugungi milliy mafkuramiz asos-larini mustahkamlashga xizmat qila oladi, deb bemalol aytishimiz mumkin. Millat dardi Amir Temur siymosi va faoliyatida o'z ifodasini topgani tufayli u dunyoning ko'p qismini o'ziga qaratgan saltanat tuza olishga erishdi. Xalq mafkurasi buyuk sohibqiron davlatining mohiyati va yo'nalishini belgilab, o'ziga xos siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarga ega bo'ldi.

Xalq turmushining har qanday yo'nalishi kabi o'zbek milliy liboslarini o'rganish o'zbek xalqining, o'zbek millatining etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o'zaro milliy aloqalarini tadqiq etish bilan chambarchas uzviy bog'liqdir.

Kiyimlarda urfodatlar, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy kelib chiqish, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, san'at va madaniya tnafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Tarixiy liboslarda bezak nafaqat o'z egasining ijtimoiy kelib chiqishi, ya'ni tabaqasini anglatgan, shuningdek, majoziy ma'no kasb etish bilan birga, kishilarning estetik didini ham ifodalagan. Liboslar yillar o'tgan sari yanada takomillashib , ularning turlari ko'payib, bichimlarining yuksalishi, shakllari, bezaklari yanada boyitilib murakkablashib bordi.

Go'zallik sari tabora intilish o'ziga xos estetik timsoldir. Shuning sababli, moda har doim o'z-o'zidan harakat qiladi kelib, yillar sari o'zgarib doimiy ravishda muntazam yengilanib keladi. Har doim ayollar chiroyli, jozibador, viqorli, latofatli ko'rinishga intilishgan. Bu hislatlar ko'rinishini yaratishda kiyim muhim rol o'ynaydi. Doimiy moda olamining hamohangida bo'ladigan ayollari turli xil uslublarga rioya qilishadi. Bu holat libosning davr va uslubga monand o'zgarib turishini namoyon qiladi.

XULOSA

Yetti iqlim kishilari yetti xildir. Odamning turmush tarzi, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash madaniyat,i odamlarning shaklu shamoyili, bo'y-basti, ko'rinishi, jussasi, tusi, ko'z qarashlari, ovozi, tarovati, xullas, ichki va tashqi dunyosi u tavallud topgan, unib-o'sgan va kamolotga etgan joyga monand bo'ladi.



Har bir inson o'z yurtining bir zarrasidir. Biz qaerda bo'lmaylik, o'zbekligimizni, o'z qadr-qimmatimizni, o'z madaniyatimizni o'z tashqi qiyofamiz, so'zimiz bilan ifoda etamiz. Bizning kiyinish madaniyatimiz ma'naviyatimiz ko'zgusidir. Shunday ekan yoshlarni badiiy tarbiyalashda tarixiy liboslarimizni o'rni unung ahamiyati beqiyos o'rin tutadi. Shu sababli ham Chet mamlakatlardan mehmon bo'lib kelgan sayohatchi, turistlar yurtimizni tarixiy amaliy san'atini, tarixiy amaliy bezaklarini, milliy urf-odatlarimizni va katta qiziqish bilan e'tibor berib yuksak e'tirof etadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amir Temur jahon tarixida.- T.: Sharq, 1996
2. Usmanova.A.S UzACADEMIA (2022). Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tasviriy san'atdan tarixiy janrda ishlash mahoratini takomillashtirish texnologiyalari. ISSN 2181-1334 №28
3. Usmanova Akida Saidasrovna. (2023). LIBOS DIZAYNI TA'LIMIDA TARIXIY MILLIY LIBOSLARNING AHAMIYATI VA UNI ZAMONAVIY MODADA TADBIQ ETISH . Tadqiqotlar, 9(1), 65–68.
4. Ibn Arabshoh. Amir temur tarixi 1-qism. 1991 ISBN raqami:5-8244-0896-3
5. <http://www.pedagog.uz/>
6. <http://www.ziyonet.uz>
7. <https://cyberleninka.ru/>